


## 2019-yil 1-dekabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida Respublikamizda 3611 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1177 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonava tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2844 ta (17,8 %)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 18807 tani tashkil etgan.






## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-dekabr holatiga 18807 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,8 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 22,8 % savdo, 12,5 % sanoat, 11,7 % qurilish, 11,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % tashish va saqlash, 1,8 % axborot va aloqa, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 27,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

	Umumiy soni, birlik		01.12.2019 yil	
	01.12.2018 yil	01.12.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>15963</b>	<b>18807</b>	<b>117,8</b>	<b>100</b>
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1962	2125	108,3	11,3
Sanoat	1802	2355	130,7	12,5
Qurilish	1732	2193	126,6	11,7
Savdo	3284	4292	130,7	22,8
Tashish va saqlash	774	864	111,6	4,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	937	1168	124,7	6,2
Axborotvaaloqa	312	338	108,3	1,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	295	364	123,4	1,9
Boshqa turlari	4865	5108	105,0	27,2

Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Nukus shahri (5816 ta), To'rtko'l (1938 ta), Beruniy (1573 ta) va Amudaryo (1391 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Taxtakopir (347 ta), Mo'ynoq (409 ta) hamda Shumanay (461 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 18370 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2886 taga (18,6 %) o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,8 % savdo, 12,6 % sanoat, 11,8 % qurilish, 11,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % tashish va saqlash, 1,8 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Nukus shahri (5739 ta), To'rtko'l (1841 ta), Beruniy (1543 ta) Amudaryo (1331 ta) va Ellikkala (1164 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Taxtako'pir (332 ta), Mo'ynoq (404 ta) hamda Shumanay (456 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 3611 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 48,4 % ga o'sgan.


## 2015-2019 yillar uchun yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Nukus shahri (1065 ta), To'rtko'l (366 ta), Beruniy (265 ta) va Amudaryo (251 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Taxtako'pir (62 ta), Qanliko'l (91 ta) hamda Shumanay (93 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1221 ta), sanoat (703 ta), qurilish (524 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (300 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlash (124 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (73 ta), axborot va aloqa (64 ta) hamda faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy  
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Tijorat korxonalari**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


2019-yil 1-dekabr holatiga 14719 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 3141 ta, oilaviy korxonalar - 998 ta, mas'uliyati cheklangan



jamiyatlar – 10277 ta, unitary korxonalar – 129 ta, aksiyadorlik jamiyatlar – 27 ta va boshqalar 147 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona




Unitar korxonona



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar




### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 151 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 35 taga yoki 30,2 %ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Turkiya Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokida korxonona va tashkilotlarning eng yuqorisi Nukus shahrida (34 ta), Mo'ynoq (23 ta), Qorao'zak tumanida (11 ta), Taxiato'sh va Kegeyli tumanlarida (10 tadan), hamda Beruniy va Nukus (9 tadan) tumanlari issasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari To'rtko'l, Xo'jayli va Chimboy (4 tadan) tumanlarida kuzatilgan.

### Yanvar-noyabr oilarida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda




### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 85 tasi qo'shma korxonalar, 66 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda**



**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faollik darajasi, %**




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlarning tumanlar kesimida soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	151	100
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	6	4,0
Beruniy	9	6,0
Qorao'zak	11	7,3
Kegeyli	10	6,6
Qong'iro't	6	4,0
Qonlikol	6	4,0
Muynoq	23	15,2

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	<b>151</b>	<b>100</b>
Nukus	9	6,0
Taxiatosh	10	6,6
Taxtakupir	5	3,3
Turtkul	4	2,6
Xujayli	4	2,6
Chimboy	4	2,6
Shumanay	5	3,3
Ellikqala	5	3,3
Nukus sh.	34	22,6

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda**




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 34 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 taga ko'paygan.

Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Nukus shahar (12 ta yoki jami ulushi 35,3 %), Mo'ynoq tumanida (5 ta yoki 14,7%), Qorao'zak tumanida (4 ta yoki 11,8%), Beruniy va To'rtko'l tumanlari (3 tadan yoki 8,8 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Amudaryo, Kegeyli, Qanliko'l, Nukus Taxiatosh, Shumanay va Elliqqala tumanlari (1 tadan yoki 2,9 %) hissalariga to'g'ri keladi.

### 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 12 ta, Qozog'iston Respublikasi -7 ta Janubiy Koreya Respublikasi -5 ta, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston Respublikasi hamda Britaniyaning Virginiya Orollari mamlakatlarida - 2 tadan, Niderlandiya Qirolligi, Turkiy Respublikasi, Avganiston va Gruzya Respublikasi -1 tadan korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat 14 ta (41,2 %), savdo 8 ta (23,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 7 ta (20,6%), qurilish 3 ta (8,8%), faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlashva ijtimoiy xizmatlarda hamda tashish va saqlashda 1 tadan (2,9%) tashkil etgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagikorxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yichasoni, birlikda**




### Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 14645 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-dekabr holatiga qaraganda 22,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4850 tasi (33,1 %) Nukus shahri, 1581 tasi (10,8 %) To'rtko'l, 1245 tasi (8,5 %) Beruniy hamda 1025 tasi (7,0 %) Amudaryo tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamidagi ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)






Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14645 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4173 tasi (28,5 %) - savdo, 2281 tasi (15,6 %) - sanoat, 2152 tasi (14,7 %) - qurilish, 1983 tasi (13,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi,


1131 tasi (7,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 839 tasi (5,7 %) - tashish va saqlash, 286 tasi (2,0 %) – axborotva aloqa sohasi, 263 tasi (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1537 tasi (10,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2019-yil yanvar-noyabr oylarida 3421 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 71,5 % oshgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Nukus shahri (1006 ta), To'rtko'l (350 ta), Amudaryo (243 ta) va Beruniy tumanlari (239 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Taxtakopir (59 ta), Qanliqo'l (89 ta), Shumanay (90 ta) hamda Qorao'zak (106 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1221 ta), sanoatda (703 ta), qurilishda (523 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (297 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (124 ta), axborot va aloqada (64 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (53 ta) tashkil etilgan.


### Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-dekabr holatiga 1030 tani tashkil etib, ulardan 998 tasi yoki 96,9 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 55,6 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 27,9 % yoki 278 tasi sanoat, 24,9 % yoki 249 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 27,7 % yoki 276 tasi savdo, 5,9 % yoki 59 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,5 % yoki

5 tasi tashish va saqlash, 2,2 % yoki 22 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 10 tasi qurilish, 1,7 % yoki 17 tasi axborot va aloqa hamda 8,2 % yoki 82 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



2019-yilning 1-dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat, savdo hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kam esa qurilish hamda tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


### 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimida soni, birlikda

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	<b>360</b>	<b>100</b>
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	94	26,1
Beruniy	16	4,4
Qorauzak	1	0,3
Kegeyli	10	2,8
Qongirot	11	3,1
Qonlikol	26	7,2
Muynoq	8	2,2
Nukus	12	3,3
Taxiatosh	28	7,8
Taxtakupir	8	2,2
Turtkul	34	9,4
Xujayli	16	4,4
Chimboy	5	1,4
Shumanay	3	0,8
Ellikqala	24	6,7
Nukus sh.	64	17,9

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 360 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,1 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Amudaryo tumanida (94 ta), Nukus shahrida (64 ta), To'rtko'l (34 ta) va Taxiatoosh tumanida (28 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam

Qorao'zak (1 ta), Shumanay (3 ta) hamda Chimboy (5 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### 2019-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 29,2 % yoki 105 tasi sanoat, 39,7 % yoki 143 tasi savdo, 17,2 % yoki 62 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 3,3 % yoki 12 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,4 % yoki 5 tasi qurilish, 1,4 % yoki 5 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,3 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, 1,7 % yoki 6 tasi axborot va aloqa hamda 5,8 % yoki 21 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Statistik registrlarni yuritish  
bo'limi.  
Tel.:71-230-82-23(24)